



**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT
DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI AKADEMIK LITSEYI**

**24-OKTYABR
2025-YIL**



**O'zbek tilining
xalqaro maydondagi
nufuzi: tarix, bugun
va istiqbol**

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI AKADEMIK LITSEYI**



**O'ZBEK TILINING XALQARO MAYDONDAGI NUFUZI: TARIX,
BUGUN VA ISTIQBOL**

**ВЛИЯНИЕ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА НА МЕЖДУНАРОДНОЙ
АРЕНЕ: ИСТОРИЯ, СОВРЕМЕННОСТЬ И ПЕРСПЕКТИВЫ**

**THE PRESTIGE OF THE UZBEK LANGUAGE IN THE
INTERNATIONAL ARENA: HISTORY, PRESENT, AND FUTURE**

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi maqolalar to'plami

OCTOBER 24, 2025



УДК:811.512.133(091)(100)(08)

Bugungi kunda “O‘zbekiston-2030” strategiyasining asosiy vazifalardan biri – ilmiy izlanish yutuqlarini amaliyotga joriy etish yo‘li bilan fan sohalarini rivojlantirish, ya’ni xalqaro ilmiy hamjamiyatda e’tirof etilishiga xizmat qilishdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentinnig 2020-yil 20-oktyabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-son farmoni ijrosini ta’minlash hamda ta’lim jarayonida o‘zbek tili va adabiyot fanlarini o‘qitishda innovatsion metodlardan foydalanish va o‘qituvchilarga uslubiy yordam ko‘rsatish maqsadida 2025-yil 24-oktyabrda o‘tkaziladigan **“O‘zbek tilining xalqaro maydondagi nufuzi: tarix, bugun va istiqbol”** mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjumanning maqolalar to‘plamini e’lon qiladi. Mazkur ilmiy maqolalar to‘plamida o‘zbek tili tarixi va uning xalqaro aloqalardagi o‘rni, hozirgi o‘zbek tilshunosligining dolzarb muammolari, akademik litseylarda o‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi, turkiy xalqlar adabiyoti tarixi, turkiy tillarning rivoji va o‘zaro o‘xshashliklari, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o‘rganish, madaniy aloqalami zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish, raqamli texnologiyalar davrida o‘zbek tilining imkoniyatlari, raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To‘plamdan dunyo bo‘yicha taniqli turkiyshunos olimlar, universitetlar, akademik litseylar professor o‘qituvchilari, iqtidorli talabalar hamda o‘quvchilarning maqolalari ham o‘rin olgan.

TAQRIZCHILAR:

Normamatov Sultonbek Ermamatovich - Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori

Ismailova Vasila Shuxratovna - Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot o‘qituvchisi

TAHRIR HAY’ATI:

Adizov Bekjon Qo‘chchiyevich - Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti akademik litseyi direktori

Aliqulova Dilbar Esanovna - Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti akademik litseyi o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari

Baxtiyorov Qobuljon Odiljon o‘g‘li - Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot o‘qituvchisi

Mazkur to‘plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ilmiy-texnikaviy kengashining 2025-yil 30-oktyabrdagi 4-sonli ilmiy majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o‘zlari mas’uldirlar.



NAMANGAN QIPCHOQ SHEVALARIDA ADABIY TIL LUG'ATINI BOYITISHGA XIZMAT QILUVCHI BIRLIKLAR

Mamatismoilova Xanifa Hayitmirzayevna,

NamDTU 2-son akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

e-mail: xanifamamatismoilova42@gmail.com

Pirmatova Mahfuza Muhibullayevna,

NamDTU 2-son akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek adabiy tilining boyishida qimmatli ichki manba hisoblanuvchi sheva va lahjalarning adabiy tilga munosabati hamda ta'sirini o'rganishlar asosidagi xulosalar keltirilgan. Maqolaga lakunarlik xususiyatiga ega birliklar ilova qilingan.

Kalit so'zlar: adabiy til, sheva, lahja, leksika, leksik birlik, lakuna, atama, shevaga xos so'zlar, dialektologiya, dialektizm, sinonimlik, omonimlik.

Bilamizki, umumxalq tili ikki asosiy tarmoqqa – adabiy til va aholining jonli muloqot tili – lahja va shevalarga bo'linadi. Ular doimo bir-birini to'ldirib, boyitib boradi.

Adabiy til lahja va shevalar bilan munosabatga kirishib, ularning umumiy xususiyatlarini yaqinlashtirib borish bilan birga o'zi ham oziqlanib, shevalardagi so'z-u iboralar hisobiga boyib boradi. Yana shunisi ham e'tiborliki, yuqorida aytilganidek, ba'zi so'z va nomlar adabiy til yoki lug'atlarda uchramaydi, lekin lahja va shevalarda mavjud. Bu esa ushbu so'z va atamalarni adabiy til iste'moliga istisnosiz qabul qilish kerakligini ko'rsatadi. Masalan, Namangan qipchoq shevalarida makkajo'xorining doni olingan asos qismi ma'nosini anglatuvchi “mardäk” so'zi adabiy tilda yoki o'zbek tilining 2 tomli izohli lug'atida uchramaydi,



ammo qishloq hududlarida, ayniqsa, dehqonchilik bilan faol shug'ullanuvchi qipchoqlarda maishiy leksika hisoblanadi. Yoki *azyīrmōq* (to'g'ri yo'ldan adashtirmoq), *alvāli* (nordon ta'mli meva), *āvraz* (uy ichidagi suv chiqish yo'lagi), *tārvāñnamōq* (haddan ortiq taltaymoq), *ro'pak tutmōq* (ro'mol yopinmoq, keng o'ramoq), *šiyroq* (oyoqning to'piqqa ulangan qismi) kabi so'zlar ham shu qatorga kiradi. Namangan qipchoq shevalarida bu kabi lakunalar talaygina deyish mumkin: *günčäsi* – satang ayol; *čörpa* – 1) cho'chqa bolasi; 2) mayda bolalar ma'nosida ishlatiladi (Bu so'zni A.Navoiy ham o'z asarlarida qo'llagan [1, 12]). *šilon* – turli masalliqlardan tayyorlangan issiq ovqat hisoblanadi; *tekis* – chiroyli (ayollarga nisbatan qo'llanadi); *asqatiš* – foydasi tegish; *uzāñilik* yoki *bebilčäk* – oyoqning yuz qismi; *xōmutōjōq* yoki *čatanōq* – kerib yurilgan oyoq; *otik* yoki *otkaläk* – (Namangan qipchoq shevalarida: “y”lovchilarda *o'tik*, “j”lovchilarda *o'tkaläk*) suvli joy yoki ariqlardan o'tadigan yog'ochdan qilingan yolg'izoyoq ko'prik – joy. XI asr yodgorliklarida bu so'z ko'prik ma'nosida ham qo'llangan [4, 144]; *čokkalä* – laganbardor; *qalanyī* -*qasanyī* yoki *qalanyī* – ko'pchilik oldida o'zini tuta olmaydigan, yengiltabiat, ziyofatlarda tezda mast bo'lib qoladigan kishi. (Toshkent shevasida *qalanyī* -*qasanyī*, Namangan qipchoq shevalari “j”lovchilarda: *qalanyī*, boshqa qipchoq shevalarda: *qanyīl*); *čotal* – olinadigan narsa, ulush; *tōtra*//*tōlta*//*dōlta* – yog' quyqasi; *bertmōq* – (qipchoqlarda *mertmōq*) – shikastlanmoq, *qīlči* – qo'ylarning yungini olish bilan shug'ullanuvchi shaxs. Bu so'z Turdi she'rlarida ham uchraydi [1, 12]; *čekanäk*//*čekenäj*//*čīyanōq* – tirsak; *parāš* yoki *xōsa* – yupqa mato, doka, dokaparang va boshqa shu kabilar.

“Dialektologiyani shevalarni o'rganishi til tarixi uchun ham, xalq tarixi uchun ham boy va qimmatli materiallar beradi. Chunki adabiy tilda allaqachonlar yo'q bo'lib ketgan yoki o'zgarishga uchragan so'zlar, ayrim grammatik shakllar mahalliy shevalarda saqlanib qolganligi tabiiy. Ularni topib adabiy tilga olib kirish yoki uni boyitish juda muhimdir. O'zbek dialektologiyasi o'zbek tili tarixidagi ayrim noaniq masalalarni oydinlashtirish, hal qilish uchun asosiy manba beradi” [2, 45].



Shevalardagi har qanday soʻzni adabiy til leksikasiga qabul qilish adabiy meʼyorlarning buzilishiga olib kelishi ham maʼlum. Lekin shuni ham yodda tutish kerakki, adabiy meʼyorlarning dialektizmlarning ommalashishiga haddan ziyod toʻsiq boʻlishi til leksikasida shevaga xos milliy soʻzlarning konsentratsiyasi kamayishiga olib keladi. Buning oldini olish uchun esa til meʼyorlarini oqilona tizimlashtirish va tartibga solish talab etiladi. Zero, soʻz va iboralar “... xalq sheva va lahjalarida tabiiy, obyektiv real mavjud-u, adabiy tildagisini kimdir sunʼiy ravishda oʻylab topgan emas” [3, 78]. Masalan, Namangan qipchoq va qarluiq lahjalariga uchrovchi *ayron* soʻzining adabiy tilga olinmaganligini keltirish mumkin. Bugungi kunda *ayron* leksemasi respublikamizning barcha sheva areali aholisi uchun tushunarli boʻlgan til birligidir. Biroq bu soʻzning xalq shevalaridagi sinonimi boʻlgan *cholop* adabiy meʼyor sifatida qabul qilingan. Diqqat bilan kuzatilsa, bunday leksik birliklar xalq shevalarida juda koʻp uchraydi. Yoki *savogʻ* soʻzi izohli lugʻatda zoologiyaga oid termin sifatida dum, band maʼnosida qoʻllanadi, lekin Namangan qipchoq areali maishiy leksikasida *ignaga oʻtkazilgan* ip mazmunida ishlatiladi. *Tolchiq* soʻzi ushbu shevalarda yengil tamaddi maʼnosiga teng keladi. Bunda biror mehnat faoliyati jarayonida qorin oʻta ochib ketganda toʻydirib olish maʼnosini beradi. *Kuna* soʻzi adabiy tilda uchramasa-da, Namangan qipchoq shevalari leksikasida dehqonchilikka oid soʻz boʻlib, agatning ustki qismini bildiradi yoki *kirchimol* soʻzi hudud arealida kir koʻtaradigan, tezda kir boʻlmaydigan maʼnolariga ega. Uning omonimi esa kirishimli, odamlar bilan tez chiqishib ketadigan shaxsni bildiradi.

Demak, oʻzbek adabiy tili meʼyorlarining lisoniy negizi ham oʻzbek milliy tilida mavjud obyektiv imkoniyatlarga, tabiiy ravishda real mavjud xususiyatlarga tayanadi. Biz quyidagi jadval asosida Namangan qipchoq shevalari mashiy leksikasida faol qoʻllaniladigan, lekin adabiy tilga kiritilmagan ayrim leksik birliklardan naʼmunalar keltirdik:



Leksik birlik	Mazmuni
<i>älimsinmäslük</i>	ko'ngli to'lmashlik
<i>äñdiməq</i>	poylamoq, xabardor bo'lmoq
<i>āñiz// añiz</i>	hosil olingandan so'ng qolgan joy, yaydoq er
<i>orqowi</i>	chok mashinaning mokisidan uzatiladigan ip. Qadimda alacha to'qish jarayonida ham bu so'z orqadan uzatiladigan ip ma'nosida qo'llangan
<i>ätäñnäšməq</i>	taqlid qilmoq
<i>borðiməq</i>	issiqdan qizarib, terlab ketmoq
<i>čowishtirməq</i>	aralashtirmoq
<i>däbdiməq</i>	adashib yurmoq
<i>dariməq</i>	1) turli ins-jinslarning ziyon yetkazishi; 2) birovni aldab olib ketmoq
<i>duwliqməq</i>	tanadagi qichishish kasalining avjiga chiqishi
<i>deväñnaməq // delvüñnaməq</i>	halaqit berib aylanib yurmoq (<i>nimägä tevamdä müjtip deväñnajverasan?</i>)
<i>elowsiraməq</i>	qo'rqmoq
<i>ergänäk</i>	tomorqadagi ekin maydonini ajratib turish uchun doimiy yoki vaqtinchalik vazifa o'taydigan balandroq to'siq
<i>gädäj</i>	mehmondorchilikka, sayohatga borishni yoqtiradigan
<i>gällaməq</i>	aldamoq, boshini aylantirmoq
<i>güðürmän</i>	o'tkir, epchil, uddaburon
<i>hawasat</i>	vahima



<i>hāyāt</i>	hovli etagidagi qo'shimcha, lekin shu hovliga qarashli yer hududi
<i>ijartmoq</i>	ergashtirmoq
<i>jälätmä</i>	yupqa, parash: <i>čapanga paxtani jälätmä qī p sapti</i>
<i>järmä</i>	sochni ikki yoqqa tarashdan boshda hosil bo'ladigan yo'l, chiziq, farq
<i>joriq</i>	har qanday marosimlarning umumiy nomi. Bu so'z "Devonu lug'otit-turk" asarida "joriq" shaklida kelgan bo'lib, xulq, birovnikiga borish ma'nolarini bildirgan. E'tiborli tomoni sheva arealida so'zning qadimgi turkiy tildagi semantik maydoni saqlangan frazeologik birlik <i>jorig'ın joq</i> – (bachkanalik qilmoq) faol qo'llanadi
<i>käkäč</i>	soqov: <i>tilim käkäč op qaldi</i>
<i>käpär</i>	juda, o'ta: <i>qī mran käpär sowixliq</i>
<i>kīrčimol</i>	kir ko'taradigan, tez kir bo'lmaydigan. Uning omonimi esa kirishimli, odamlar bilan tez chiqishib ketadigan shaxsni bildiradi (kīrčimol bola)
<i>kövül</i>	yovvoyi o'simlik, mevasining ust qismi yashil, ichki qismi mayda qora urug'larga to'lgan qizil etdan iborat. Uning mevasi ko'pgina dardlarga davo hisoblanadi
<i>kūna</i>	agatning ustki qismi



mänäk	tandirning ikki yonidan yuqoriga ko'tarilishdagi egilgan joyi. Masalan, tandirning managiga (<i>manak non</i>) yopmoq
märdäk	makkajo'xorining doni olingan qismi, o'zagi va doni olinmagan makkajo'xori. Adabiy tilda <i>so'ta</i> . [O'TIL, 2020. 4,100]
miñtamir	zubturum, bargizub
miðixmä	qaymoq eritib, saryog'dan quyqasi ajratilgandan so'ng unga non to'g'rab tayyorlanadigan taom. Odatda, non solingach, qo'l bilan ezg'ilab chiqiladi, atama shundan kelib chiqqan bo'lishi kerak
naxlamoq	o'zaklamoq, erkaklamoq: <i>jergä suqilgän pijozläriñ näxläp ketipti</i>
nenazin//ninazin	bir chiroyli, tuzuk, yaxshi, kattagina
owib qolmoq	arazlamoq
oxjaq//oxjq	dog'lanmagan, qizdirilmagan paxta yog'i
pärmädälämoq//ilpislänmoq	biror ishni o'ta sekin va maydalab qilmoq
päštän//čorčop//tägäččä//päštäng	ayvon chekka qismining yog'och bilan ko'tarilgan joyi, uyning sement yotqizilgan joyi ustiga qo'yiladigan yog'och.
piliq	sabzavot yoki mevalarning chirigan qismi
püt	oyoq
panjyī	anqaygan, bo'shashgan odam
perap//penow	ekinlarni sug'orishdan keyingi oqava, tashlama suv



<i>qolantajq</i>	oyoqqa paytava o'ramay yoki paypoqsiz mahsi kiyish: <i>enaj mässini qäläntajäq kīyip kettī</i>
<i>qowuzlq</i>	bashikning eng tagiga solinadigan, namlikni tortib olishi uchun bug'doy yoki arpa boshog'ining qipig'i solib maxsus tikilgan ko'rpacha
<i>qilpīr//qīrpūt</i>	mug'ombir, qitmir
<i>qīrxlīq</i>	qo'y va echkilarning yungini olishda ishlatiladigan qaychi turi
<i>qowizyaq//kewäk</i>	1) donning himoya qobig'i – po'sti; 2) sochning qazg'og'i
<i>qowiq</i>	tutning xo'l shohidan sidirib olingan, turli narsalarni bog'lab qo'yiladigan tasma.
<i>ropak tutmāq</i>	ro'mol yopinmoq, keng o'ramoq
<i>šäkkī//qaxčeka//mäddä</i>	mahmadona, qaqildoq, sergap odam
<i>selqā</i>	uquv: <i>chak tikishga selqasi yo'q</i>
<i>šejräjgan</i>	lang ochiq
<i>šildīnjamāq</i>	yupqa kiyinmoq
<i>šīyrāq</i>	oyoqning to'piqqa ulangan qismi
<i>teziktšmāq</i>	janjallashib ketmoq
<i>tālčiq</i>	yengil tamaddi ma'nosiga teng
<i>torpāq</i>	buzoqdan kattaroq, g'unajindan kichikroq sigir
<i>ümma-δümma</i>	baravar : o'toqda uma-jumma ishlanglar
<i>xäp</i>	jim, indamay (<i>xap tur</i>)
<i>zimmillamāq</i>	shovqinsiz yugurmoq



<i>zoqaqvʻʻ</i>	guvalabosh, cho 'ziq bosh
<i>ḍaḥṣimʻq</i>	javramoq
<i>ḍimsimʻq</i>	kasallik tufayli tananing terlashi
<i>ḍistū</i>	sal torroq
<i>ḍʻwlimʻq</i>	alahsiramoq, bosinqiramoq, tushida qo'rqmoq yoki uyqusirab gapirmoq
<i>γuliyuli</i>	kurka

Namangan qipchoq shevalari arealida bu kabi adabiy tilda mavjud o'zgacha ifodasiga ega so'zlar yoki adabiy tilda mavjud bo'lmagan maishiy leksik birliklarning miqdori juda ko'p.

Zero, asosiy maqsad, milliy tushunchalarni ifodalovchi xalqning jonli – iste'moldagi tilidan so'zlarni muvofiqlashtirib, adabiy tilni boyitish va ulardan oqilona foydalanishni yo'lga qo'yish chora-tadbirlarini qat'iy belgilash hisoblanadi. Haqiqatdan ham, xalq jonli tili – shevalarda qadimiy yozma yodgorliklarda uchrovchi lisoniy birliklardan ham qadimiyroq til unsurlari va birliklari mavjudki, ularni mukammal o'rganish tilimiz taraqqiyotiga munosib hissa bo'lib qo'shiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алиев А., Содиков Қ. Ўзбек адабий тили тарихидан. – Тошкент: Ўзбекистон, 1994.
2. Тўйчибоев Б., Ҳасанов Б. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ ме'роси, 2004.
3. Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва халқ шевалари. – Тошкент, 1962.
4. Қошғарий М. Девону луғат-ит турк. (Тарж. ва нашрга тайёрловчи С.Муталлибов). 2-том. – Тошкент, 1960-1963.



№	MAQOLA SARLAVHASI VA MUALLIFLARI	SAHIFASI
I SHO'BA. O'ZBEK TILI TARIXI VA UNING XALQARO ALOQALARDAGI O'RNI		
1	ÖZBƏKİSTAN RESPUBLİKASINDA DİL SİYASƏTİNİN MÜSTƏQİLLİKDƏN SONRAKİ İNKİŞAF MƏRHƏLƏLƏRİ - Elçin İBRAHİMOV Prof. Dr. Qarabağ Universiteti Elm şöbəsinin müdiri	19-35
2	ORTAK DEĞERLERİMİZ: DİLİMİZ, KÜLTÜRÜMÜZ VE ATASÖZLERİMİZ - Ahmet Hamdi SALBAŞ Ali Şir Nevai Akademik lisesi öğretmeni	36-41
3	O'ZBEK TILINING XALQARO MIQYOSDA OMMALASHUVI: RIVOJLANISH OMILLARI VA ISTIQBOLLARI - Bahodirov Botir Baxodirovich - Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti akademik litseyi yoshlar ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari	42-47
4	TIL – MILLAT KO'ZGUSI - Baxodirova Mashhura Baxodirovna, Osimova Rayxona Adhamjon qizi - Farg'ona davlat texnika universiteti 1-son akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari	48-51
5	O'ZBEK TILI TARIXI VA UNING XALQARO ALOQALARDAGI O'RNI - Nazarova O'rozhol Xudoyberdiyevna - Termiz davlat universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	52-55
6	FRANSUZ TILINI TARIXIY RIVOJLANISHI - Usmanova Malika Adilovna Farg'ona davlat universiteti akademik litseyi "Chet tillar" kafedrasida fransuz tili fani o'qituvchisi	56-58
7	FRANSUZ TILIDA FRAZELOGIK BIRLIKLARI - Andapulatova Firuza Ikramovna - Farg'ona davlat universiteti akademik litseyi "Chet tillar" kafedrasida fransuz tili fani o'qituvchisi	59-62
8	O'ZBEK TILINING XALQARO MAYDONDAGI NUFUZI: TARIXI, BUGUNI VA ISTIQBOLLARI - Yangiboyeva Umida Ravshanbek qizi Urganch innovatsion universiteti Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili yo'nalishi, 24-01 guruh talabasi	63-66
9	MAXMUD QOSHG'ARIYNING LINGVISTIK QARASHLARI - Umarov Abroroxuja Vaxobovich Namangan davlat texnika universiteti 1-son akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	67-70
10	O'ZBEK TILINING XALQIMIZ VA XALQARO ALOQALARDAGI AHAMIYATI - Saidova Dildora Baxtiyarovna TDTU 3-son akademik litseyi o'zbek tili va adabiyot fani o'qituvchisi	71-74
11	O'ZBEK TILI: MILLIY O'ZLIK VA XALQARO E'TIROF RAMZI - Eshnayeve Feruza Qarshiyevna Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	75-77
12	İLİM ÜZERİNE - Zahro Mahmudova Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti akademik litseyi Xorijiy tillar (turk) yo'nalishi o'qituvchisi	78-82
13	"CODEX CUMANICUS"DA İŞLƏNƏN BƏZİ SÖZLƏRİN DİALEKTLƏRDƏ İZLƏRİ - İmanyar QULİYEV AMEA Nəsimi adına Dilçilik İnstitutu, böyük elmi işçi, fil.ü.f.d. Bakı Avrasiya Universiteti, müəllim	83-94
II SHO'BA. HOZIRGI O'ZBEK TILSHUNOSLIGINING DOLZARB MUAMMOLARI		
14	ELBEKNING LUG'ATCHILIK FAOLIYATI HAQIDA - Normamatov Sulton Ermamatovich Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Filologiya fanlari doktori (DSc), professor	96-102
15	IS'HOQXON IBRAT ASARLARIDA IJTIMOYIY-SIYOSIY, MAISHIY LEKSIK QATLAM QO'LLANISHIDAGI LISONIY VA NOLISONIY OMILLAR - Latipov Murotali Mannobovich Guliston davlat universiteti Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.	103-107
16	ZAHRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING O'ZBEK TILI TARAQQIYOTIGA QO'SHGAN HISSASI - Abbasova Mubina Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti stajer-tadqiqotchisi	108-112
17	FIZIOLOGIK HOLAT FE'LLARINING O'ZBEK TILIDAN INGLIZ TILIGA TARJIMA QILISHDAGI MUAMMOLAR - Pulat Fozilov Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti mustaqil tadqiqotchisi	113-119
18	DINIY LEKSEMALARINING SEMANTIK VA STILISTIK XUSUSIYATLARI TAVSIFI -Mirzayeva Mashxura Ravshanbek qizi Farg'ona davlat texnika universiteti 1-son akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	120-124



19	LINGVOPRAGMATIKANING TILSHUNOSLIKDAGI O'RNI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI - Kobilov Nomoz O'rolovich Sharof Rashidov nomidagi SamDU akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi (PhD)	125-128
20	HOZIRGI O'ZBEK TILSHUNOSLIGINING DOLZARB MUAMMOLARI - Abdurasulova Raximaxon Odiljon qizi Namangan davlat pedagogika instituti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	129-131
21	KULOLCHILIK LEKSIKASIDA DETERMINATSIYA VA TERMINOLOGIZATSIYA HODISALARI Mamatkulova Zilola Rejabaliyevna Farg'ona davlat universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi, Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori	132-136
22	QADIMGI VA ESKI TURK BITIKLARIDA TABG'ACH VA QITANY (XITOIY) TOPONIMLARI MASALASI - Mamajonov Alisherbek Ravshanbek o'g'li Farg'ona davlat univeristeti Lingvistik: o'zbek tili mutaxassiligi magistranti	137-143
23	HOZIRGI O'ZBEK TILSHUNOSLIGINING DOLZARB MUAMMOLARI - Tilovova Guljahon Dilmurod qizi Shahrisabz davlat pedagogika instituti huzuridagi akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	144-147
24	"MUNOZARA" DRAMASIDA QO'LLANGAN BA'ZI UNDOV SO'ZLARING LINGVOPRAGMATIK TAHLILI - Usmonova Shaxnozaxon Erkinjonovna TDYU huzuridagi Namangan viloyati akademik litseyi Tillar kafedrasida yetakchi o'qituvchisi	148-151
25	O'ZBEK TILIDA SINTAGMATIK MA'NO VA SINTAGMATIK MUNOSABAT, ULARNING IFODALANISH YO'LLARI - Usmonova Huriniso Sharapovna, Namangan davlat universiteti professori	152-156
26	HID KONSEPTI - Qurbonov Akmaljon Tavakaljon o'g'li Farg'ona davlat universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	157-162
27	METATIL VA TARIXIY TURKOLOGIYA: 'AT-TUHFATUZ ZAKIYATU FIL-LUG'ATIT-TURKIYA ASARINING ILMIY MEROSI - Xolbekova Nargiza Zohidjonovna FarDU mustaqil izlanuvchisi, FarDU akademik litseyi ingliz tili o'qituvchisi	163-165
28	O'ZBEK VA INGLIZ DISKURSIDA TOLERANTLIKNING MADANIY JIHATDAN IFODALANISHI - Gavharoy Yormatova Abdulla qizi Farg'ona davlat universiteti akademik litseyi ingliz tili o'qituvchisi	166-171
29	O'ZBEK TILIDA O'XSHATISHLI QURILMALAR BADIYATI - Gazibekova Soxiba Yusupovna O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutining mustaqil izlanuvchisi	172-176
30	AYRIM DEHQONCHILIK LEKSIKASI ETIMOLOGIYASI - Pirmatova Ozodaxon Saparboyevna Urganch davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim fakulteti katta o'qituvchisi	177-181
31	NAMANGAN QIPCHOQ SHEVALARIDA ADABIY TIL LUG'ATINI BOYITISHGA XIZMAT QILUVCHI BIRLIKLAR - Mamatismoilova Xanifa Hayitmirzayevna, NamDTU 2-son akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Pirmatova Mahfuza Muhibullayevna, NamDTU 2-son akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	182-189
32	O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA YUKLAMALAR TADQIQI - Ismailova Dilnoza Shavkatovna Toshkent davlat tibbiyot universiteti 1-son akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	190-195
33	O'ZBEK TILIDAGI SINTAKTIK BIRLIKLARDA KOMMUNIKATIV-PRAGMATIK MA'NO IFODALANISHI - Qazaqova Nozima Abdulboqiyevna, University of Business and Science dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori	196-201
34	XALQ DOSTONLARI LEKSIKASINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI - Abduqahhorova Muattar Ma'rufjon qizi, Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Namangan viloyat akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	202-207
III SHO'BA. AKADEMIK KITSEYLARDA O'ZBEK TILI VA ADABIYOTINI O'QITISH METODIKASI		
35	AKADEMIK LITSEYLARDA O'ZBEK TILI VA ADABIYOTINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBALAR INTEGRATSIYASI - Adizov Bekjon Qo'chchiyevich, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti akademik litseyi direktori	209-219
36	«LEKSIKOLOGIYA» BO'LIMINI O'QITISH JARAYONIDA O'QUVCHILARNING SO'Z BOYLIGINI OSHIRISH YO'LLARI - Ismailova Vasila Shuxratovna, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	220-230



37	AKADEMIK LITSEYDA O'ZBEK TILI O'QITISHNING AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY USULLARI - Botirova Soliyaxon Ro'zivojevna O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Toshkent "Temurbeklar maktabi" harbiy-akademik litseyi ona tili va adabiyot fani bosh o'qituvchisi	231-238
38	ADABIYOT DARSLARIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI - Urazova Nargiza Qurdashovna , TXVU akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)	239-246
39	O'ZGA TILLI GURUHLARDA ALISHER NAVOIY HAYOTI VA IJODINI O'RGANISH -Shomurodova Sitora Xoshim qizi , "International house – Tashkent" akademik litseyi o'zbek tili fani o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)	247-250
40	UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA ONA TILI MASHG'ULOTLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH MASALALARI (Qozog'istondagi ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan maktablar misolida) - Naraliyeva Shahlo Djamalovna , Jumabek Tashenev nomli universiteti katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD) (Qozog'iston, Chimkent) Hulkar Hamroeva , O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi dosenti, filologiya fanlari doktori (O'zbekiston, Toshkent)	251-260
41	SAID AHMADNING „QORAKO'Z MAJNUN“ASARINI O'RGANISH - Nasriyeva Dilbar Muhiddinovna , Chirchiq davlat pedagogika universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	261-264
42	AKADEMIK LITSEY DARS JARAYONIDA "QUTADG'U BILIG" ASARINING O'QITILISHI - Matkarimova Nasiba Bekchanovna , Toshkent davlat transport universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	265-267
43	AKADEMIK LITSEYLARDA ANTON PAVLOVICH CHEXOV HAYOTI VA IJODINI O'RGATISHNING SAMARALI USULLARI - Farida Abdullayeva Xayrulla qizi , Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI akademik litseyi o'zbek tili va adabiyoti fani o'qituvchisi	268-272
44	AKADEMIK LITSEY DARSLIKLARIDA TAQLID SO'ZLAR MAVZUSINING BERILISHI TO'G'RISIDA - Narziyeva Nazokat Abdurasulovna , Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi, SamDU mustaqil izlanuvchisi	273-277
45	AKADEMIK LITSEYLARDA O'ZBEK TILI VA ADABIYOTINI O'QITISHNING ZAMONAVIY METODIKASI -Mansurova Zilola Bahodirovna , Navoiy davlat universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani bosh o'qituvchisi	278-283
46	AKADEMIK LITSEYLARDA O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI FANINI O'QITISHDA INGLIZ TILI METODIKASIDAN FOYDALANISH TAHLILI - Ashurova Feruza Maxamadyusupovna , Farg'ona davlat universiteti akademik litseyi chet tillari kafedrasida ingliz tili fani o'qituvchisi	284-288
47	ADABIYOT – SO'Z SAN'ATI - Xakimova Shapoat Pazliddinovna , Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	289-293
48	ABDULLA QODIRIY IJODINI O'RGATISHDA INNOVATSION USULLARDAN FOYDALANISH - Djabbarova Nodira Shovkat qizi , Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	294-297
49	AKADEMIK LITSEYLARDA O'ZBEK TILI VA ADABIYOTINI O'QITISH METODIKASI - Ahmadaliyev Shohruh , Toshkent Davlat Yuridik Universiteti huzuridagi Namangan viloyat akademik litseyi Matematika fani o'qituvchisi	298-303
50	ADABIY TA'LIMDA O'QUVCHILARNING IJODIY FAOLIYATINI LOYIHA TEXNOLOGIYASI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASI - Mamatova Maxbuba Abdulboqi qizi , Namangan davlat pedagogika instituti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	303-306
51	AKADEMIK LITSEYLARDA O'ZBEK TILI DARSLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH - Toshmurodova Xalima To'raxonovna , Chirchiq davlat pedagogika universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	307-310
52	KOMIL INSONNI TARBIYALASHDA DIDAKTIK ADABIYOTNING O'RNI - To'xtaboyeva Muyassar , Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani, oliy toifali o'qituvchisi, falsafa fanlar doktori (PhD) Jo'rayeva Muhabbat , Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani oliy toifali o'qituvchisi	311-315
53	ADABIYOT O'QITISHDA BADIY TAHLIL MUAMMOLARI - Hamdamova Manzura Jurabayevna , Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	316-319



54	ONA TILI DARSLARIDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH - Achiliva Nasiba Saidovna , Samarqand iqtisodiyot va servis instituti akademik litseyi ona tili va adabiyot o'qituvchisi	320-324
55	AKADEMIK LITSEYLARDA "MA'NO KO'CHISH YO'LLARI" MAVZUSINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARNING AHAMIYATI - Egamberdiyeva Vazira G'ulomovna , Guliston davlat universiteti akademik litseyi Ona tili va adabiyot fani bosh o'qituvchisi	325-328
56	ADABIYOT DARSLARIDA FSMU TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH - Matluba Rahmonova Usmonovna , NamDU akademik litseyi o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisi	329-333
57	«HOL VA UNING USLUBIYATI» MAVZUSINI O'RGANISHDA AXBOROT VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING QO'LLANILISHI - Achilova Zarina Saidovna , Samarqand iqtisodiyot va servis instituti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	334-338
58	ADABIY MATN ASOSIDA LINGVOMADANIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARNING O'RNI - Norov Jamshid Nurulloevich , Buxoro davlat pedagogika instituti, Xorijiy tillar kafedrası tayanch doktoranti	339-342
IV SHO'BA. RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA O'ZBEK TILINING IMKONIYATLARI		
59	SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA O'ZBEK TILINI O'QITISH: IMKONIYATLAR, USULLAR VA MUAMMOLAR - Aliqulova Dilbar Esanovna , Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti akademik litseyi o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari	344-352
60	RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR IMKONIYATLARI. "RAQAMLI O'ZBEKISTON - 2030" STRATEGIYASI - Shodiyeva Nigora Murodullayevna , Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti akademik litseyi informatika fani o'qituvchisi	353-358
61	RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA O'ZBEK TILINING RIVOJLANISH IMKONIYATLARI - Sulaymonova Nafisa Sattorovna , Navoiy davlat universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	359-362
62	TILSHUNOSLIKDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARNING O'RNI - Qosimova Dilnoza Toshkanovna , O'zDTU akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	363-367
63	ЦИФРОВАЯ ВИЗУАЛИЗАЦИЯ ТЕКСТА: СОЗДАНИЕ КОМИКСОВ ПО РАССКАЗУ А. КАХХАРА «ДВА САПОГА-ПАРА» С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ CHATGPT - Атабекова Айну р Женисбековна, Преподаватель русского языка и литературы. Академический лицей Филиала РГУ нефти и газа(НИУ) имени И.М.Губкина	368-372
64	RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA O'ZBEK TILINING IMKONIYATLARI - Tilovova Guljahon Dilmurod qizi , ShDPI huzuridagi akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	373-376
65	ONA TILI TA'LIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI - Baxodirova Mashhura Baxodirovna , Osimova Rayxona Adhamjon qizi, Farg'ona davlat texnika universiteti 1-son akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari	377-381
66	THE ROLE OF LANGUAGE IN THE DIGITAL AGE - Ibragimova Hurriyat Uchqun qizi , JMCU master's student in Journalism Teacher of Uzbek Language and Literature at the M.S. Vosiqova Academic Lyceum under Tashkent State University of Law	382-387
67	RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA O'ZBEK TILINING IMKONIYATLARI - Bahodirova Dildoraxon Zarifjon qizi , Farg'ona davlat universiteti akademik litseyi xorijiy tillar yo'nalishi o'quvchisi	388-390
68	RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA O'ZBEK TILINING IMKONIYATLARI - Saminova Muslimaxon Quadratjon qizi , Farg'ona davlat universiteti akademik litseyi xorijiy tillar yo'nalishi o'quvchisi	391-394
69	YAPAY ZEKÂ VE ÖZBEK DİLİ: SORUNLAR VE ÇÖZÜMLER - Allanazarova Anora Muxobir qizi Shahrizabz davlat pedagogika instituti 1-kurs magistranti.	395-400
70	RAQAMLI ASRDA ONA TILI ORQALI MILLIY QADRIYATLARNI SAQLASH VA RIVOJLANTIRISH- O'rinova Sayyora Xolmirzayevna , TDYU huzuridagi Namangan viloyat akademik litseyi "Tillar" kafedrası ona tili va adabiyot fani bosh o'qituvchisi	401-409



V SHO'BA. TURKIY XALQLAR ADABIYOTI TARIXI

71	MUSTAQILLIK DAVRI O'ZBEK –AZARBAYJAN ADABIY ALOQALARI: NIZOMIY “XAMSA” SINING TARJIMASI HAQIDA - Ashurova Gulbahor Nurullayevna , Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti	411-418
72	TURKIYADA ALISHER NAVOIY IJODINI O'RGANISHNING YETAKCHI TENDENSIYALARI - Cho'lliyeva Latofat Sevindikovna , ToshDO'TAU tayanch doktranti, ToshDO'TAU akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	419-438
73	ИСТОРИЯ ЛИТЕРАТУРЫ ТЮРКСКИХ НАРОДОВ - Султанова Майя Туйчиевна , преподаватель АЛ САМ ГИИЯ Академический лицей Самаркандского Института Иностранных Языков Республика Узбекистан, г. Самарканд	439-443
74	ALISHER NAVOIY IJODINING TURKIY XALQLAR ADABIYOTIDA O'RGANILISHI - Karimova Yulduz Baxtiyorovna (PhD) , Farg'ona davlat universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	444-448
75	ADABIY MUHITNING QODIRIY IJODIGA TA'SIRI - Abdilakimov Dilruxjon Rajab o'g'li Toshkent kimyo-texnologiyalari instituti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	449-455
76	O'RXUN-ENASOY BITIKLARI ASOSIDA TURKIY XALQLAR ADABIYOTI TARIXI -Madaminova Rayhona Alisher qizi , Farg'ona davlat universiteti akademik litseyi xorijiy tillar yo'nalishi o'quvchisi	456-459
77	MAHMUD QOSHG'ARIY VA UNING TURK ADABIYOTIGA QO'SHGAN HISSASI - Madina Zokirova Shuhratjon qizi , Farg'ona davlat universiteti akademik litseyi xorijiy tillar yo'nalishi o'quvchisi	460-463
78	MAHMUD QOSHG'ARIY – TURKIY TIL VA ADABIYOTINING ASOSCHISI - Satimova Ra'noxon Habibullayevna , Andijon davlat tibbiyot instituti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	464-469
79	YUSUF XOS HOJIBNING TURKIY XALQLAR ADABIYOTIGA QO'SHGAN HISSASI - Ne'matova Benazir Adilbekovna , Farg'ona davlat universiteti akademik litseyi xorijiy tillar yo'nalishi o'quvchisi	470-473
80	JAZBIYNING TURKIY DEVONI QO'LYOZMALARI - Samadova Madina Zafarjon qizi , Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	474-479
81	XIDIR DERYAYEVNING “QISMAT” ASARI TAHLILI -Xolmurodova Mahliyo , Termiz davlat pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 4-bosqich talabasi	480-482
82	ILM VA ADABIYOTNING SINTEZI: "OLIM-SHOIR" MODEL - Akbarova Sayyora Sobirovna , Toshkent davlat texnika universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi, Shamsiddinov Nasriddin Bahriddinovich , Toshkent davlat texnika universiteti akademik litseyi matematika fani o'qituvchisi	483-488
83	YOSHLAR TARBIVASIDA MILLIY TILNING O'RNINI VA AHAMIYATI - GO'ZALOY MAMEDOVA Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti akademik litseyi oliy toifali, ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	489-491



